



Ishtemirova Jasmina Abdumalik qizi

Filologiya va tillarni o‘qitish(o‘zbek tili)yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada lingvistik antropologiya doirasida o'zbek tilidagi madaniy ifodalarning shakllanishi, ularning ijtimoiy-madaniy kontekstda mazmun hosil qilish jarayonlari hamda milliy identitet bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda avvalo o'zbek jamiyatining tarixiy-madaniy qatlamlarida yuzaga kelgan til birliklarining semantik, pragmatik va semiotik xususiyatlari ko'rib chiqilib, ular orqali jamiyatning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy munosabatlar modeli yoritiladi. Xususan, "ko'ngil,, "or-nomus,, "iymon,, "bosh qotirmoq,, kabi konseptlar milliy tafakkurda qanday funksional yuklama va madaniy markazga ega ekani antropologik yondashuv asosida sharhlanadi. Tadqiqot natijalari o'zbek tilining nafaqat muloqat vositasi, balki madaniy merosni tashuvchi semiosfera sifatidagi qiymatini ochib beradi.

Kalit soʻzlar: *Lingvistik antropologiya, konsept, etnolingvistika, Sapir-Uorf gipotezasi, lingvokulturologiya*

Lingvistik antropologiya-antropologiyaning bir bo'limi bo'lib,til inson hayotiga jamiyatiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadi,ya'ni tilning ijtimoiy-madaniy kontekstda o'zgarishi va inson ongini qanday shakllantirishini tadqiq etadi.Har bir til nafaqat muloqat vositasi,balki o'sha tilni gapirgan xalqning tarixiy tajribasi,madaniy qadriyatlari va dunyoqarashi haqida chuqur ma'lumot beradi.Shuning uchun tilni o'rganish faqat grammatika va leksika masalalarni o'z ichiga olmaydi,balki madaniyatni tushunishni ham anglatadi.Til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish, tildagi so'zlar, iboralar, ularning ma'nosi va ishlatilishi orqali xalqning hayoti urf odatlari,me'yorlari va qadriyatlari haqida chuqurroq tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.Ushbu sohada xorijiy olimlar jumladan Franz Boas,Edward Sapir shuningdek,o'zbek va rossiyalik olimlar N.S.Tolstoy,A.S.Gerd, V.N.Teliya,A.Nurmanov muhim tadqiqotlar olib borgan.Ularning ishlari til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilishga,lingvokulturologiya va etnolingvistika rivojiga katta hissa qo'shgan.Kirish qismida tilning ijtimoiy va madaniy kontekstdagi roli,shuningdek,lingvistik antropologiyaning asosiy tadqiqot yo'nalishlari yoritiladi,o'zbek tilidagi madaniy ifodalar antropologik tahlil orqali o'rganiladi.Antropologiyada madaniyat inson tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar majmui sifatida qaraladi. U tabiiy emas, balki ijtimoiy jarayonlar orqali shakllanadi.

Tilshunoslikda madaniyat bilan til o'rtasidagi aloqani izohlovchi bir qancha nazariy yondashuvlar mavjud:

- ## 1. Sapir–Uorf gipotezəsi (Lingvistik nisbiylik)



Bu nazariyaga ko'ra, inson dunyoni tili orqali idrok qiladi. Demak, har bir xalqning dunyoqarashi o'z tilining ichki tuzilishi bilan belgilanadi.

Masalan: o'zbek tilidagi "mehr", "qadr", "izzat", "yo'qsa bo'lmaydi" kabi birliklar o'zbek mentalitetida hurmat-izzatning muhim o'rinda turishini ko'rsatadi.

2. Til — madaniy kod

Tilshunoslar madaniyatni "kodlangan ma'lumotlar tizimi", tilni esa ushbu madaniy kodni yechadigan vosita sifatida ko'rishadi. Masalan, marosimlar, qarindoshlik atamalari, taomlar nomi til orqali o'zining madaniy mazmunini anglatadi.

3. Etnolingvistika yondashuvi

Bu yondashuv til birliklari orqali xalqning urf-odati, yashash tarzi, qadriyatlari qanday aks etishini tahlil qiladi. Masalan, o'zbek tilidagi qarindoshlik terminlarining ko'pligi (amakivachcha, tog'avachcha, qayinuka va boshqalar) oila institutining muhimligini ko'rsatadi. Lingvokulturologiyada "konsept" tushunchasi madaniyatni tahlil qilishning asosiy birligi hisoblanadi. Konsept – xalq ongida shakllangan abstrakt madaniy tushunchadir.

O'zbek madaniyatida asosiy konseptlar: mehmondo'stlik, kattaga hurmat, halollik, oilaparvarlik. Bu konseptlar til birliklari, matallar, maqollar, nutq odatlari orqali ifodalanadi.

Konsept — bu xalq ongida shakllangan murakkab madaniy-ma'naviy birlik bo'lib, unda til, tafakkur va madaniyat o'zaro mujassam bo'ladi. O'zbek xalqining ma'naviy-etnik identitetini shakllantiruvchi asosiy konseptlar qatorida ko'ngil, or, nomus, iymon alohida o'rin tutadi. "Ko'ngil" konseptining antropologik tahlili

1 Lug'aviy va semantik mazmun

"Ko'ngil" o'zbek tilida hissiyot, ruhiyat, axloqiy poklik, ijobiy niyat, mehr-muruvvat kabi ma'nolarni birlashtiradi. Bu konseptning asosiy jihati — insoniylikning markazi sifatida qaralishi. Masalan: "Ko'ngil olish katta fazilat", "Ko'ngli oq odam" — bular antropologik jihatdan xalqning axloqiy qadriyatlarini aks ettiradi.

Antropologik ma'no:

"Ko'ngil" insonning ijtimoiy munosabatlarda komillikka intilishi, ruhiy tozalik va jamoaviylik tamoyillarining ifodasidir. Bu konsept o'zbek madaniyatidagi insonparvarlik va mehr-muruvvat qadriyatlarini anglatadi.

"Or" konseptining antropologik talqini:

"Or" konsepti o'zbek xalqida shaxsning ijtimoiy mavqei belgilovchi ichki axloqiy nazorat tizimi hisoblanadi. Bu qadriyat jamoa oldidagi mas'uliyat va o'zini tiyish madaniyatidan kelib chiqadi.

"Nomus", konseptining antropologik tahlili:

"Nomus" — sharaf, obro', oila sha'ni va jamiyat oldida yuzning yorug'ligi bilan bog'liq qadriyat. O'zbek madaniyatida nomus — shaxsni tartibga soluvchi kuchli axloqiy omil.

Lingvistik antropologiya nuqtai nazaridan o'zbek tili nafaqat kommunikativ vosita, balki milliy madaniyatni, qadriyatlar tizimini va xalq ongini aks ettiruvchi murakkab semiosfera sifatida talqin qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi ko'ngil, or, nomus va iymon kabi asosiy konseptlar xalqning axloqiy me'yorlarini, diniy-etnik qadriyatlarini va ijtimoiy identitetini shakllantiruvchi markaziy birliklar hisoblanadi. Bu konseptlar til orqali faqat so'zma-so'z ifodalanmay, balki frazeologik, idiomatik va metaforik qatlamlar orqali chuqur antropologik ma'no kasb etadi, shuningdek, ularning tarixiy ildizlari milliy mentalitet va ijtimoiy tajribaning davomiyligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, konseptlar tahlili orqali milliy madaniyatning global madaniyat bilan o'zaro ta'siri, til va madaniyatning dinamik rivojlanishi ham kuzatiladi. Bu esa o'zbek tilini o'rganish va uning madaniy ifoda tizimini tahlil qilishda yangi metodologik yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, lingvistik antropologiya o'zbek tilini milliy madaniyatni, axloqiy qadriyatlarni va ijtimoiy normativlarni chuqur anglash uchun samarali vosita sifatida ko'rsatadi va bu yo'nalishda yanada chuqur tadqiqotlar olib borish dolzarbdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Maslova, V. A. Lingvokulturologiya. Moskva: Akademiya, 2001.
2. Ashurova, D. U., & Abduazizova, D. Lingvokulturologiya: nazariya va amaliyot. Toshkent: Fan, 2013.
3. Jasur, A. O'zbeklarda "ko'ngil" konsepti: lingvokulturologik tahlil
4. Semenov, A. A. (2010). Antropologiya asoslari. Moskva: Akademiya.